

TUNYUQUQ BITIK TOSHI VA QADIMGI O'RXUN ENASOY YODGORLIKLARI

Yakubova Tursunbibi Tairovna

Ilmiy rahbar: *"Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishon
i sohibasi, 6-IDUM ona tili va adabiyoti o'qituvchisi*

Boltaeva Gulmoh Zafar qizi

Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Bitiktoshda Turk xoqonligining qayta tashkil topishi, bu ishda Eltarish xoqonning xizmati, To'nyuquqning xoqonlik shakllanishi, yuksalishidagi, turli o'lka va qabilalarga qarshi uyushtirilgan harbiy yurishlardagi qahramonligi, vatanparvarligi batafsil bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Tunyuquq, qabila, toponim, yish, bitik, xoqon, turk, o'g'uz, turgash, shantun.*

Yozning qoq chillasi, eskilar so'zi bilan – o'roq oyi. Shunday esa-da, dala-tuz yam-yashil. Mo'g'uliston o'rtalig'idagi tuzu qirlar ila o'rmon, qurama tog'lar tutashib ketgan Bayn So'kto' o'lkasi ana shunday manzarali, bahavo joy. Bu tuproqda qutlug' bir ziyoratjoy bor. U Ikkinchi turk xoqonlig'i davrida davlat arbobi, qo'mondon va donishmand o'tgan To'nyuquq mangutoshidir. Chet ellik musofirlar, olimlar ziyorat uchun bu yerga tez-tez kelib turadi. Qadimda, Chingizxon davlat qurguniga dovur bu yerlar turk xoqonliqlari va ellariga qarashli edi.

Topib borish yo'li shunday: ulovda Ulan-bator(o'zbekchasi O'g'lon botir)dan chiqib Janubi-Sharqqa yo'l olasiz. Sakson chaqirimlarcha narida so'lim bir go'sha bor. U yerni Milliy bog' atashadi.

Mo'g'uliston yerlari o'ziga yarasha. Bizdagi singari qishloq va kentlar bir-biriga ulanib ketgan emas, ora-chora cho'pon va yilqiboqarlarning o'tovlari ko'rinib qoladi. Yaylovlarida har qadamda yilqi uyuri, qo'y va echki suruvi, uy-qoramol podasi, o'rkachli tuyalar. Yilqi va sigirlarining tanasi yaltiraydi(havosining tozaligi va o't-o'lanning mo'lligidan bo'lsa kerak). Qo'rg'onlarida daraxt yo'q hisobi, eshik va ko'ylarga daraxt ekish odat emas. Lekin soy yoqalari, quzg'ay yerlarda o'sgan yovvoyi yig'ochlarga ko'zingiz tushadi. Ekinligi oz. Qishloqisining tirikchiligi asosan chorvadan. Kishisi sodda va samimiy. O'tovidan chiqib yumush bilan kuymalanayotgan onasining yonida yap-yalang'och o'ynayotgan jo'juqqa ko'zingiz tushib qoladi orada. Dala-tuzda hatto qo'lga o'rgatilgan lochin yo qirg'ini tutib turgan qushchisini ham ko'rasiz. Yaylovdagi oddiy mo'g'ulning bundayin hayot tarzini tomosha qilishning o'z gashti bor.

Boshkentdan uzoqlashganingiz sari yaylovlar tugab, tog'lar, archalar bilan qoplangan o'rmonlar boshlanadi. Bexos qadimgi bitiglarda ta'rif etilgan manzaralarni eslaysan kishi; o'sha chog'lar bunday o'rmonli tog'lar yish deb atalgan. Yo'l yoqasidagi qoyalarni ko'rib, hayratlanasan: qayusi ulkan bir toshbaqa ko'rinishiga kelib qolgan, qayusi tangriga topinib

turgan odam boshini eslatadi. Ko'k turklar bu tuproqlarni ona-yurt tutgani, bilga To'nyuquq o'z tirikligining so'nggi yillarini shu yerlarda o'tkazganini endi tushunib yetdim.

To'nyuquq yodgorlik majmuasiga ham ana shu yo'ldan boriladi. Milliy boqqa yetmay turib, so'lga – tekis yaylov tomon burilib ketiladi. Asfalt yo'q, mashinalar kirib-chiqaverib, o'ziga yo'l ochgan. Ancha ichkari kirilgach, ziyorat yeri keladi.

Darvoqe, ushbu majmua xoqonliklar zamonidan qolgan boshqa yodgorliklardan ancha chetda. Kul tigin va Bilga xoqon bitiglari tiklangan joy bilan bu yerning orasi 360 chaqirim. Sarkarda qarigan chog'da davlat ishlaridan chetroq, tinch bir manzilni tanlagan bo'lsa ajabmas.

To'nyuquq asli Tabg'ach(Xitoy)da tug'ilib, tarbiya topgan. Tabg'achning ish yo'rig'iga ko'ra, turk o'g'lonlari bu yerda tarbiyalanib o'z yurtiga jo'natilar edi. Yosh To'nyuquqqa ham shunday yo'l tutildi. Lekin u otalar yurtiga kelib, tabg'achga xizmat qilish o'rniga milliy-ozodlik harakatlariga qo'shilib ketdi. U uch xoqon – Eltarish, Bo'gu, Bilga xoqon yurti boshqarganda ularning kengashchisi va qo'mondoni bo'lgan

To'nyuquq bitiktoshi - marmar bitiktosh, turkiy yozuv yodgorligi, Eltarish xoqon (680)ning maslahatchisi va sarkarda To'nyuquq (taxminan 645—726) sharafiga qo'yilgan (712—716). UlanBatordan 66 km jan.sharkda joylashgan. Bitik 62 satrdan iborat bo'lib, jan.va shim. tomonlarga bir-biriga qaratib qo'yilgan 2 to'rt qirrali tosh ustunga yozilgan. Jan.dagi ustunning bal. 170 sm, shim. dagisini 160 sm. Bitikning 1—7satrlari toshlardan birining g'arbga, 8—17satrlar jan.ga, 18—24satrlari sharqqa, 25—35satrlari shim.ga qaragan tarafiga yozilgan. Bitikning 36—44satrlari ikkinchi toshning g'arbga, 45— 50satrlari jan.ga, 51—58satrlari sharqqa va 59—62 satrlari shim.ga qaragan tarafiga bitilgan.

Bitiktoshda Turk xoqonligining qayta tashkil topishi, bu ishda Eltarish xoqonning xizmati, To'nyuquqning xoqonlik shakllanishi, yuksalishidagi, turli o'lka va qabilalarga qarshi uyushtirilgan harbiy yurishlardagi qahramonligi, vatanparvarligi batafsil bayon etilgan. Yodgorlik nafaqat badiiytarixiy asar sifatida, balki qad. toponimlar va etnografizmlarni o'rganish nukta nazaridan ham ahamiyatlidir. Jumladan, unda Tabg'ach (Xitoy), Shantung (Shandun — Shim.Sharqiy Xitoydagi provinsiya), O'tukan (Oltoy va Xingan tog'lari oralig'idagi vodi), Ko'gman (Sayan tog'lari), To'g'la (Tola daryosi), Oltun (Oltoy), Yinchu ug'uz (Sirdaryo), Sug'd, Temir Qapig' (Darband — Hisor tog'idagi dovon) kabm o'lka va joy nomlari, turk, o'g'uz, qitaniy, turgash, qirg'iz singari kabila nomlari uchraydi.

Mazkur bitiktoshni 1897 yilda rus etnografi Yelizaveta Klemens eri Dmitriy Klemens bn birga Shimoliy Mo'g'ulistonning BainSokto manzilidan topgan. Dastlab, bitiktoshning fotosurati, transkripsiyasi va nemischa tarjimasi V. V. Radlov tomonidan 1899 yilda nashr ettirilgan. Yodgorlik matni dan(dat), ingliz, rus, fransuz, nemis tillariga tarjima qilingan, turk va o'zbek tillarida tavsif etilgan. O'zi To'nyuquqning xitoycha nomi "To'ng'ich javhar" degan ma'noni anglatgan

O'rxun-Enasoy obidalari 5-7 asrlarda qadimgi turk tilidagi va yozuvidagi tarixiy yodgorlik sifatida qadrli. Mo'g'ulistondagi O'rxun va Janubiy SibirdagiEnasoy daryolari sohillarida topilgani uchun ham shunday nomlangan. Mo'g'ulistondan Shimoliy

dengizlargacha, Uraldan Saxalinga qadar davom etgan hududda shu yozuvdagi yodnomalar uchraydi. Shimoliy Kavkazda 15 asrda ham O'rxun yozuvidan foydalanilgan. O'zbekiston hududida (Farg'ona, Surxondaryo v.b. joylar) dan 20 dan ortiq turkiy-run yozuvi yodgorliklari topilgan.

Yirik O'rxun bitiklari Kultigin, Bilga xoqon, To'nyuquq va boshqa bu yozuvdagi yodnomalar (mas. Irq bitigi) adabiy manba sifatida qahramonlik qissa va dostonlariga mazmunan yaqin keladi. Kultigin bitiktoshi 732 yil Turk xoqonligi (551—745)ning lashkarboshisi sharafiga o'rnatilgan.

Bitiktosh ikki qismdan: Kichik va Ulug' bitikdan iborat. Vatan manfaati yo'lida xizmat qilish, mamlakatning mustahkam, osoyishta bo'lishi uchun kurash bitikoshlarda bosh maqsad ekani aytiladi. Asarda Tabg'ach, Tibet, Sug'd, Turgash, Qirg'iz kabi joy nomlari tilga olingan. Enasoy bitiklari marsiya va madhiya janrlarining qadimgi turk adabiyotidagi ildizlari haqida tasavvur beradi.

Bitiktoshlar 19 asr oxirlarida topilib, U.Tomsen tomonidan o'qilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Ba'zi yodgorliklar deshifrovka qilingan emas. AQSh, Polsha, Vengriya, Finlyandiya va Turkiyada ham o'rganilgan. Rossiyada V.Radlov, S.Malov, I.Stebleva ishlari ma'lum. O'zbekistonda Fitrat, A.Qayumov, N.Rahmonov v.b. asardan namunalar va tadqiqot ishlarini chop qildirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. -M.: 1951;
- 2.I.V.Stebleva. Poeziya tyurkov U1-U111 vv. —M.:1964;
- 3.I.V.Stebleva. Poetika drevnetyurkskoy literaturi i ee transformatsiya v ranneklassicheskiy period. — M.: 1976;
- 4A. Qayumov. Qadimiyat obidalari. — T.: 1971.
- 5.N.Rahmonov. Inson ruhining sadosi. — T.: 1986;
- 6.N.Rahmonov. Ko'hna bitigtoshlar. — T.: 1990:
- 7.N.Rahmonov. Turk xoqonligi. — T.: 1993
- 8.Internet ma'lumotlari asosida:
- 9.www.wikipedia.uz
- 10.www.kutubxona.uz